

**NOGIRON BOLALAR HAQIDAGI STATISTIK MA'LUMOTLAR**

Xaydaraliyeva Dilnoza Raxmatjanovna

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

universiteti pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada nogiron bolalar haqida bir nechta statistik ma'lumotlar berilgan. Shuningdek nogiron bolalarning holatiga qarab turlari va ularning ta'lim-tarbiya jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun olib borilayotgan tashabbusli loyihalar bilan bir qatorda, inklyuziv ta'lim va uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari haqida ham batafsil fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, nogiron bola, UNICEF, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, syerebral falajlik.*

ABSTRACT: *This article provides some statistics about children with disabilities. In addition to the types of disabled children depending on their situation and the initiative projects that are being carried out so that they do not face difficulties in the process of education, inclusive education and measures to increase its effectiveness are also discussed in detail.*

Key words: *Inclusive education, disabled child, UNICEF, children in need of special education, cerebral palsy.*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье приведены некоторые статистические данные о детях с ограниченными возможностями. Помимо типов детей-инвалидов в зависимости от их ситуации и реализуемых инициативных проектов, чтобы они не столкнулись с трудностями в процессе обучения, также подробно обсуждаются инклюзивное образование и меры по повышению его эффективности.*

Ключевые слова: *Инклюзивное образование, ребенок-инвалид, ЮНИСЕФ, дети, нуждающиеся в специальном образовании, детский церебральный паралич.*



KIRISH

Bolalar -hayotimiz mazmuni. Ularning sog'ligi hamma narsadan ustun. Sog'lom farzandlari bor insondan baxtli odam dunyoda bo'lmasa kerak. Lekin besh qo'l barobar bo'lmaganidek hamma bola ham sog'lom emas. Ba'zilar ruhiy tomondan, ba'zilar aqlan va yana boshqalar esa jismoniy nuqsonlarga ega bo'lib tug'ilishadi yoki hayoti davomida shunday holga tushib qolishadi. Bunday insonlar ham jamiyatda boshqalar kabi yashashga, ilm olishga va sog'lom odamlardek ishlab, hayot kechirishga haqlidirlar. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, nogironlarni ham barcha so'lom odamlar qatori ta'lim-tarbiya olishlariga ko'maklashish maqsadida qator loyihalar ishlab chiqilgan. Mana shulardan biri inklyuziv ta'lim tizimi, ya'ni, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun integratsiyalashgan ta'limdir. Dunyo bo'ylab nogironligi bor bolalar haqidagi ma'lumotlar bilan quyidagi ma'qolada batafsil ma'lumot berib o'tiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, umumjahon statistika ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzi aholisining 9-11 foizini rivojlanishdan orqada qolgan va ularning ruxiy-jismoniy xolati bilan bog'liq maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan kishilar tashkil etadi. UNICEF Xalqaro bolalar jamg'armasi O'zbekistan Respublikasidagi vakolatxonasining sobiq boshlig'i Reza Xossayni Innochentining ma'lumotiga ko'ra, Markaziy-Sharqiy Yevropa mamlakatlari, Boltiqbo'yi davlatlari va mintaqaning 27 davlatida maxsus tarbiyaga muhtoj deb tan olingan bolalar soni 1990 yilda 500 mingta bo'lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 1,5 millionga ko'tarildi, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar soni 3 barobarga o'sgan. O'zbekistonda esa 1996 yilda qayd qilingan va nazorat ostidagi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar soni 70 mingtani tashkil qilgan bo'lsa, 2005 yilga kelib 125 mingtaga yetdi. Bu o'sish, birinchi navbatda, bolalar maxsus tarbiyaga muhtojligi masalasining dolzarbligi va ko'mak izlayotgan onalarning soni ortib borayotgani bilan bog'liq. BMT sobiq bosh kotibi Kofi Annan o'z ma'ruzasida quyidagi xayotiy misollarni keltirdi. "Maktabda deyarli o'qimagan, na ishi, na bexatar boshpanasi bo'lmagan maxsus yordamga muxtoj bolani tasavvur qiling, onalari dori solingan shishaga yopishtirilgan yoriqni o'qiy olmagani uchun jon taslim qilayotgan



bolani yoki yuridik xujjatni o'qiy olmagan uchun meros qolgan yerdan maxrum bo'lgan kishini ko'z oldingizga keltiring".

Ta'lim har doim ham qaramlik, vasvasa va qashshoqlikdan xalos bo'lish uchun kalit xisoblangan. Ta'lim kambag'allikka qarshi kurashadigan samarali qurol. U ko'plab odamlarning hayotini saqlab qoladi va raqobatbardoshligini oshiradi, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotini rag'batlantiradi. Ta'limning uzluksizligi esa yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Rivojlanish ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun o' tub ahamiyatga ega. Ammo bugungi kunda dunyo bo'yicha 113 milliondan ortiq bola ta'limdan bebahra qolmoqda. Butun dunyo bo'yicha minglab bolalar ko'chada yashaydilar. Xavfli joylarda ishlaydilar. Ularni (ayniqsa nuqsonli bo'lsa) har doim kamsitadilar, ko'pincha bu bolalarning oddiygina huquqlari ham yo'q. ("Ming yillik ma'ruzasi", 2000 yil). Chet el va Rossiya Federatsiyasining tajribasini o'rganish jarayonida Rossiyada ijtimoiy muammolari bo'lgan bolalar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar ma'lum bo'ldi. Birinchi o'rinda asab tizimi va his qilish organi (21,7 foiz), shularning orasida eng ko'p uchraydigan syerebral falajlangan (DSP), ikkinchi o'rinda ruhiy rivojlanishi buzilgan (18, 6 foiz) va aqli zaif (71,0 foiz), tug'ma anomal (18,5 foiz) 3 turdagi kasalliklar tizimi sabablari bolalar maxsus tarbiyaga muhtojligi asosining qariyb 70 foizini belgilab beradi. Davlat muassasalarida nogiron bolalar va nogiron yoshlarning soni haqida ma'lumot yo'q, ammo ayni paytda muassasalardagi bolalarning katta qismi nogiron bolalar va nogiron yoshlardir.

O'zbekistonda 760 ming nafardan ziyod nogironligi bo'lgan shaxs, shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar istiqomat qiladi. Ular ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya choralari bilan qamrab olingan. Davlat nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarga moddiy, maslahatga oid va boshqacha tarzda yordam beradi, sodda qilib aytganda, alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 3-bobidagi moddalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida



himoya qilish asosida qanday vaziyat bo'lishidan qat'iy nazar insonni, shu jumladan nogironligi borligi tufayli kamsitmaslik prinsipi yotadi. Bu borada nafaqat davlat tuzilmalari, balki fuqarolik jamiyati institutlari ham faollik ko'rsatayotgani juda muhim.

XULOSA

Nogironligi bor bolani boshqalar bilan barobar ko'rib, uni hayotga, yashashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni turli mashg'ulotlar bilan band bo'lishini ta'minlash har bir davlatning oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirishni, uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.



6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.